

## Ijtimoiy Davlat Sharoitida Inklyuziv Ta'limni Tizimini Takomillashtirishning Nazariy-Huquqiy Asoslari

**Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Magistratura va sirtqi ta'lim" fakulteti Davlat boshqaruv  
huquqi mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim tushunchasining mazmun-mohiyati keng ochib berilgan. Shuningdek ijtimoiy davlat sharoitida inklyuziv ta'lim bilan bog'liq muammolar tahlil qilinib, yechim sifatida bir qator takliflar ilgari surilgan hamda inklyuziv ta'limga oid bir qator qonun-hujjatlarida aks etgan normalar tahlil qilingan. Bundan tashqari ijtimoiy davlat tushunchasining paydo bo'lishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar bayon qilinib, inklyuziv ta'lim bilan mutanosib tushunchalar ekanligi batafsil ochib berilgan.

**Kalit so'zlari:** ijtimoiy davlat, inklyuziv jamiyat, inklyuziv ta'lim, konstitutsiya, innovatsiya, transformatsiya, dekloratsiya, infratuzilma, o'quvchi, integratsiya.

Ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda yer yuzida 200 dan ortiq mamlakatlar mavjud. Ulardan 193 tasi rasman jahonning eng nufuzli xalqaro tashkiloti bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zosi va yana 2 ta mamlakat mazkur tashkilotda kuzatuvchi maqomiga ega sanaladi. Xalqaro huquqning teng va to'laqonli subyekti sifatida tan olingan har bir mamlakat rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlagan. O'z navbatida o'ziga xos rivojlanish yo'lining tanlanishi uning qay darajada samara berishi yoki bermasligi bu be vosita o'sha mamlakat milliy ta'lim tizimi bilan bog'liq hisoblabadi. Yangi O'zbekistonni global dunyoga integratsiyalashuvida inson qadr-qimmatini, insonni har tomonlama ham moddiy va ham ma'naviy himoyasi davlatimiz siyosatining ustuvor vazifasiga aylanib bormoqda. Bugungi davrda global mehnat bozorida yuqori maosh va kafolatlangan ish bilan ta'minlanishni istagan har bir talabgorga ham shaxsiy, ham kasbiy sifatlariga ega bo'lish malakalari qo'yilmoqda. Bunga sabab inson resurslarini boshqarish sohasida kuzatilayotgan zamonaviy tendensiyalardir.[1] Shuning uchun ham har bir mamlakat o'z fuqarolarini muayyan yoshga yetkanidan so'ng bepul majburiy ta'lim bilan qamrab oladi. Xalqaro huquq normalariga ko'ra bepul boshlang'ich va o'rta ta'lim bilan qamrab olish qat'iy belgilangan. Yanada aniqroq qilib aytganda, "Inson huquqlari bo'yicha umumjahon dekloratsiyasi"ning 26-moddasiga ko'ra quyidagilar belgilangan "Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim olish, hech bo'lmaganda, boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerak. Texnik va kasbiy ta'lim hammaning imkoni yetadigan bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun bir xil imkoniyat darajasida bo'lishi kerak." [2]

Bundan anglash mumkinki, ko'lami va nufuzi bo'yicha jahonning eng yirik yuridik hujjati har bir insonni ta'lim olishini kafolatlaydi. Biroq tengdoshlardan farqli o'laroq ayrim o'quvchi-talabalardagi ma'lum nuqsonliklar ularni an'anaviy ta'lim tizimida sifatli bilim olishiga ba'zi bir cheklavlarni yuzaga keltiradi. Xususan ko'rish, eshitish va harakatlanish va boshqa nogironlik belgilari mavjud bo'lgan o'quvchi-talabalar uchun alohida sharoit va e'tibori zarur. Dunyo bo'yicha bir milliarddan ortiq, O'zbekistonda esa sakkizyuzmingdan ortiq nogironligi bor bo'lgan shaxslarning mavjudligini hisobga olsak, ta'lim tizimida inklyuzivlikni ta'minlash bugungi kunning ustuvor masalasiga aylangan har bir mamlakat fuqarolari faravonligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini yuritishda aholini ijtimoiy qatlami uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Dunyo mamlakatlari orasida

ijtimoiy davlat sifatida shakllanayotgan O'zbekiston inklyuziv ta'lim izimi yaratish va uni doimiy takomillashtirib borishning izchil islohatlar yo'lidan bormoqda. Misol uchun 2023-yil 30-aprelida o'tkazilgan referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inklyuziv ta'limga oid alohida normalarning mustahkamlanib qo'yilishi barchaga ta'lim olish huquqlarini kafolatlaydi. Asosiy qonunning 50-moddasi 6-qismiga binoan "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi." [3]

"Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi"ga uyg'un ravishda mamlakat bosh qomusida inklyuziv ta'limga doir normalarning belgilanishi huquqiy jihatdan ta'lim olish imkoniyatlarni yaratib, har bir kishida shaxsiy va kasbiy sifatlarini yanada yaxshilab borishiga sharoit yaratadi. Masala esa belgilangan huquqlarni sifatli ijro etish va amaliy jihatdan inklyuzivlikni ta'minlashdadir. Chunki inklyuziv ta'lim inklyuziv jamiyat barpo qilishning asosiy sharti hisoblanadi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ijtimoiy davlat barpo qilishni o'z oldiga maqsad qilgan har bir mamlakat jamiyat hayotida inklyuzivlikni ta'minlamay turib to'liq ijtimoiy davlat bo'la olmaydi. O'z konstitutsiyasining 1-moddasida ijtimoiy davlat va 50-moddasida inklyuziv ta'lim va tarbiya kabi dolzarb masalalarning konstitutsiyaviy huquqiy asoslarni yaratgan O'zbekiston ta'lim tizimi inklyuzivlikni ta'minlash masalasini ustuvor etib belgiladi. Umuman olganda inklyuzivlik bu faqat qonunchilikda ma'lum normalarni aks ettirish va inklyuziv ta'limni ta'minlash bilan cheklanib qolmaydi. Ta'lim olgandan so'ng har bir inson olgan bilimni amalda qo'llashni, ya'ni mehnat qilishni istaydi. Bu esa inklyuziv mehnat shart-sharoitlarini yaratishni, shuningdek jamiyat hayotining boshqa sohalari xususan inklyuziv turizm, inklyuziv transport singari xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarni yaratish zarur. Biroq bugunki kunda milliy ta'lim tizimida inklyuzivlikni ta'minlash bo'yicha o'z yechimini kutib turgan bir qancha muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, oliygohlarda mutaxassisliklarga oid zarur o'quv resurslarining ko'rishda nuqsoni bo'lgan talabalar uchun audio darsliklar, shuningdek brayl shaklidagi darsliklarning lozim darajada ta'minlanmaganligi oliy ta'lim tizimida inklyuzivlikni ta'minlash bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan asosiy masalalar sarasiga kiradi. Inklyuziv ta'lim bu faqat imkoniyati cheklangan talabalar uchun zarur shart-sharoit yaratib berish deganimi yoki boshqacha ma'no anglatadimi degan savolning batafsil aniq javobi hech bir manbada aniq keltirib otilmagan. Biz esa ushbu savolga quydagicha javob bermoqchimiz: inklyuziv ta'lim bu tili, dini, irqi, fuqoroligi, tibbiy holati va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar har bir inson ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar majmuasidir. Ya'ni ta'lim olish har bir insoning uzviy huquqi hisoblanib, davlat tomonidan kafolatlanadi. Masalaga chuqur tahliliy yondashadigan bo'lsak inklyuziv ta'lim, ta'lim olishga moddiy ta'minotida muayyan kamchiliklar bo'lgan o'quvchi-talabalar uchun zarur shart-sharoitlar, shuningdek nogironligi bor bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan imkoniyatlar hamda ona tilisi davlat tilidan boshqa til bo'lgan o'zga millat vakillar uchun o'zlariga tushunarli tilda ta'lim olish kompleks shart-sharoitlaridir. Ma'lumki huquqiy, ijtimoiy davlat sharoitida har bir harakatning huquqiy asosi bo'lishi shart. Jumladan yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida milliy ta'lim tizimida inklyuzivlikni ta'minlash masalasining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari mavjud. Bunga misol sifatida yuqorida keltirib o'tilgan "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 50-moddasida" belgilab qo'yilgan ta'lim va tarbiyani tashkil etish normalarni asosiy qonun darajasida ifodalanishi, shuningdek "Ta'lim to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni inklyuziv ta'lim masalasini qonuniy jihatdan yana bir muhim huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu qonunning 20-moddasiga ko'ra "Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi." [4]

Qonun hujjatlarida aks etgan mazkur normalardan mazmunan shunday xulosaga kelish mumkinki, inklyuziv ta'lim bu barcha ta'lim oluvchilarning ta'lim olish huquqini har qanday sharoitda ham amalga oshirish kafolatidir. Ushbu kafolatni ta'minlash uchun davlat ijtimoiy tabiatga ega bo'lishi zarur. Ayni shu jihati bilan ham ijtimoiy davlat o'ziga xos maqomga ega bo'lgan xalqchil siyosatni

yuritadigan davlat hisoblanadi. Shu o'rinda inklyuziv ta'lim prinsiplarini alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Inklyuziv ta'limning prinsiplari:

1. Insonning qadr qimmatini uning qobiliyati va yutuq'iga bog'liq emas;
2. Har bir inson o'ylash va xis qilish qobiliyatiga ega;
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega;
4. Har bir kishi bir-biriga muxtoj;
5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi;
6. Hamma kishilar o'z tengdoshlarini qo'llab quvvatlashga muxtoj;
7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas , balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama kuchaytiradi.[5]

Bugungi kunda real voqealikdan kelib chiqqan holda yondashadigan bo'lsak, mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'minlash bo'yicha bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa ijtimoiy davlat barpo qilish yo'lida hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar sarasiga kirishi bilan yanada ahamiyatlidir. Misol uchun,

1. Milliy ta'lim tizimining asosiy bo'gini bo'lgan maktab ta'limi tizimida o'qitilayotgan fanlar doirasida barcha mavzular bo'yicha sifatli audio darsliklarning yaratilmaganligi nafaqat ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun, balki barcha o'quvchilar uchun tinglash orqali mavzuni tushunish imkoniyati ishg solinmay turibdi;
2. O'tkaziladigan fan olimpiadalarida nogironligi bor bo'lgan o'quvchi- talabar uchun barcha o'quvchi talabalar singari fan olimpiadalarida ishtirok etishi va o'z bilimlarini sinashi uchun zarur shart-sharoitlarini yaratib berishga qaratilgan aniq mezonning mavjud emasligi, fan olimpiadalarida inklyuzivlikni ta'minlash bo'yicha aniq huquqiy asosning yaratilmaganligi, turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan imkoniyati cheklangan o'quvchi-talabalarni fan olimpiadalarida o'z bilimini sinashga bo'lgan ishtiyoqini so'nishga sabab bo'lmoqda;
3. Harakatlanishdan muayyan qiyinchiliklarga duch keladigan o'quvchi- talabalar uchun inklyuziv ta'lim infratuzilmasining yaratilmaganligi harakatlanish erkinligini cheklamoqda;
4. Ta'lim siyosatini amalga oshiruvchi davlat idoralari tomonidan inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning qabul qilinmayotganligini, shuningdek inklyuziv ta'limni ta'minlash bo'yicha aniq bir qat'iy yondashuvning yo'qligi, ayniqsa, inklyuziv ta'lim ta'minlash bo'yicha zarur shart-sharoitlarni ifodalaydigan me'yoriy hujjatning yaratilmaganligi inklyuziv ta'lim bilan bog'liq barcha muammolarning asosiy sababi hisoblanadi. Shuningdek inklyuziv ta'lim bo'yicha keltirib o'tilgan ushbu va boshqa muammolar ijtimoiy davlatning huquqiy tabiati va fundamental asosining yetarlicha mustahkam emasligini ko'rsatadi.

Shu bois ta'lim siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat idoralari tomonidan inklyuziv ta'limni tashkil etish va nazorat qilish funksiyalarini mas'uliyat bilan yondashish bugungi kunning talabidir. Chunki dunyo bo'yicha bir milliarddan ortiq, O'zbekiston bo'yicha bir millionga yaqin imkoniyati cheklangan fuqarolar borligi, shuningdek hozirda va kelgusida tug'iladigan avlodlarning tibbiy jihatdan to'laonlik sog'lom bo'lishi kafolatlanmagan. Bu esa inklyuziv ta'limga avvallari bo'lgani kabi bugun ham kelajakda ham yetarlicha ehtiyoj bo'lishini yaqqol ko'rsatadi. Chunki ta'lim, ayniqsa, sifatli ta'lim inson kamoloti, jamiyat farovonligi va davlat taraqqiyotining asosiy manbayi hisoblanadi. Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining nafli jixati juda ko'p ular sirasiga qo'yidagilar kiradi:

- ✓ Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- ✓ Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;

- ✓ Kamsitishlarni oldini oladi;
- ✓ Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.[6]

Bu borada ta'lim tizimida inklyuzivlikni ta'minlashning ahamiyati shundaki, jamiyatning har bir a'zosini xususan nogironligi bor shaxslarni jamiyatga integratsiyalash imkoniyati yaratiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil Prezidentlik saylovida ishtirok etishi uchun tadbirkorlar va ish bilarmonlar harakati O'zbekiston liberal-demokratik partiyasida so'zlagan nutqida quydagi fikirlarni keltirib o'tgandi. "Donishmandlar aytganidek, har bir inson qalbida quyosh bo'ladi. Unga nur sochish uchun imkoniyat berish kerak." [7] Ayni shunday imkoniyatning nomi bu inklyuzivlikdir. Chunki inklyuzivlik jamiyatning har bir a'zosi bilan manzilli ishlash jarayonidir. So'ngi yillarda barcha soha va tarmoqlar qatori ta'lim tizimida ham jadal islohatlar yo'lidan borayotgan O'zbekiston milliy ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilish amaliyotidan keng foydalanilmoqda. Misol uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida Fillandiya tajribasi asosida "4K" modeli, oliy ta'lim tizimida "Baloniya konivensiyasi" asosida kredit modul tizimini joriy qilish orqali milliy ta'lim tizimini transformatsiya qilish ishlari faol amalga oshirilmoqda. Zamonaviy ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalar yangicha imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda har bir insonning iste'dodini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratib bermoqda. Misol uchun maxsus printerlar yordamida brayl shaklida o'quv materiallarini chop etilishi, ovozni sifatli yozish qurulumalari yordamida audio materiallar ham yaratilmoqda. Bularning bari inklyuziv ta'limning asosiy resurslari hisoblanadi. Shuningdek ta'lim kampusi va o'quv binolarida harakatlanish uchun maxsus yo'laklarning yaratilishi har bir inson mustaqil o'zi harakatlanish imkoniyatini yaratish orqali o'zini hech bir insondan kam emasligini his qilishga zamin yaratadi. Ijtimoiy davlat sifatida yangi O'zbekiston inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lidan faol va qat'iy bormoqda. Har yilli oliy ta'limga qabul qilinadigan talabalar umumiy kvotasidan tashqari alohida 2% imkoniyati cheklangan abituriyentlarga talaba bo'lishi uchun kvotalar ajratilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, Oliygozlarga har yili o'rtacha 200 ming talaba qabul qilinsa, yana 4000 imkoniyati cheklangan kishilar talaba bo'lish baxtiga musharaf bo'lishadi. Bu esa ijtimoiy tenglik prinsipining o'z isbotini topishidir. Bundan tashqari, O'zbekiston milliy ta'lim tizimida sifatli bilim olish bugungi kunning sharti va mehnat bozorining talabi hisoblanadi. Shu bois imkoniyati cheklangan talabalarning ham ta'lim muassasasini bitirishidan so'ng mehnat qilish huquqini ta'minlash uchun inklyuziv ta'limni mantiqiy davomi bo'lgan inklyuziv mehnat shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tan olish kerakki bugungi kun amaliyotida nogironligi bo'lgan bitiruvchilarning bandligi lozim darajada ta'minlanmayapti. Ayniqsa faoliyat turidan qat'iy nazar korxonalar, muassasa va tashkilotlarga ishga joylashgan imkoniyati cheklangan fuqarolarning mehnat jarayonlariga moslashib ketishi bilan bog'liq muayyan qiyinchiliklar ham kuzatilmoqda. Bu esa inklyuziv ta'lim va inklyuziv mehnat yetarlicha uyg'un emasligini yaqqol ko'rsatadi. Shuning uchun ham ta'lim tizimida o'qitishning mehnat bozori qoidalarini joriy qilishdan avval ayni mehnat qoidalarini inklyuzivlashtirish lozim. Chunki har bir insonning ta'lim olishdan maqsadi bu olgan bilimni amaliyotda tadbiiq qilishdir. O'zbekiston misolida tahlil qiladigan bo'lsak, har bir o'quvchi 11 yil maktab ta'limi sektorida majburiy band bo'ladi. Shuningdek ixtiyoriy ravishda oliy ta'lim tizimida bakalavriatda 4 yil, uning mantiqiy davomi bo'lgan magistraturada esa 1 yildan 2 yilgacha tahsil olishadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, har bir inson o'rtacha hisobda 11 yildan 17 yilgacha ta'lim sektorida band bo'ladi. Shu maqsadda inklyuziv ta'lim har bir insonning inklyuziv hayot poydevori vazifasini o'tab berishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu esa shuni anglatadiki, inklyuziv mehnat zarurligini bildiradi. Shu o'rinda alohida qayd etish kerakki, oliy ta'lim talabasida bitirgach nima qilaman degan tashvishli savol bo'lmasligi kerak. Aksincha o'z qobilyatini namoyon qila oladigan shart-sharoitiga ega bo'lishi kerak. Chunki inklyuziv ta'lim tizimi o'quvchi-talabalarga zarur shart sharoit yaratib berishi bilan ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'lim tushunchasining mazmun- mohiyati shundan iborat.

Inklyuziv ta'lim bu umumiy rivojlatirish jarayoni bo'lib, hamma uchun shu jumladan alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun ham ta'lim olish imkoniyatini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim barcha

o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olib, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilgan holda tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojga ega nogiron, balki nogironligi bo'lmagan o'quvchilar o'qiydigan umumta'lim muassasalarida ham ta'lim- tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa o'quv- muassasalar ham o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishlari, o'quv muassasasi darajasida ham inklyuziv, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi zarur. Inklyuziv ta'lim o'quvchilarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiladigan va barcha odamlarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan, shu bilan birga maxsus ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratadigan mafkuraga asoslanadi.[8] Bundan anglash mumkinki, inklyuziv ta'lim bu ta'lim olish jarayonida har qanday kamsitishlarni inkor qiladigan, muayyan nogironlik belgilari ta'lim olish uchun hech qanday to'siq bo'lmasligini isbotlaydigan ijtimoiy ta'lim standarti hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tendensiyalaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, endilikda inklyuziv ta'lim bu muatassil takomillashib boradigan ta'lim tizimining ajralmas qismi sanaladi. Chunki inklyuziv ta'lim bu inson huquqlarining e'tirof etilgan tomoyillari va demokratik qadriyatlariga mos bo'lgan har bir insonning huquq va qobiliyatlarini hurmat qilishga qaratilganligi bilan doimiy rivojlanishda bo'lganligini ko'rsatadi. Bu ayniqsa izchil ijtimoiy siyosat amalga oshiriladigan mamlakat sharoitida yaqqol o'z ifodasini ko'rsatadi. Zotan ijtimoiy davlat fenomeni inklyuzivlik tushunchasi bilan bir birini to'ldiradigan tushunchalar hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy tengsizlik va turli tofovutlarni ayni inklyuzivlik jarayoni muvozanatga keltiradi. Shu jihatdan ushbu maqolada ilgari surilgan fikr, ya'ni hech bir mamlakat inklyuzivlikni ta'minlamay turib to'laqonli ijtimoiy davlat bo'la olmaydi degan qarash yana bir bor o'z isbotini topayotganligini tahlillar asosida guvoh bo'lishimiz mumkin. Davlat siyosiy tashkilot sifatida jamiyatga rahbarlik qilishi va ijtimoiy boshqaruvni amalga oshirishini hisobga olsak, inklyuzivlik davlat siyosatining eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ayni munosabatlar esa huquq normalari bilan tartibga solinadi. Ta'lim olish insonning uzviy huquqi ekanligidan kelib chiqqan holda fuqarolarning ijtimoiy holati turlicha ekanligini hisobga olsak, har qanday sharoitda ham ta'lim olish imkoniyatlari, xususan maxsus ta'lim ehtiyojiga ega kishilar uchun moslashtirilgan imkoniyatlari huquq asosida kafolatlanadi. Shuning uchun ham davlatning ijtimoiy tabiati huquqiy asoslar bilan mustahkamlanadi. Shu o'rinda Ijtimoiy davlat o'zi nima, qachon va kimlar tomonidan paydo bo'lgan degan savolga o'rindir. Ijtimoiy davlatchilik tushunchasi XIX asr oxiri XX asr boshida vujudga keldi. Bu davrda neo-liberal nazariyachilar erkinlikning yangi pozitiv talqinini ilgari surib, davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatini ta'minlash majburiyati g'oyasini ilgari surdilar. Bunga ko'ra davlat ijtimoiy davlatni bartaraf etishning, ya'ni boylik va qashshoqlik o'rtasidagi nisbatni muvozanatlash lozim edi. Shu tariqa davlatning ikkinchi avlodi inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq faoliyatini nazarda tutuvchi ijtimoiy dvlart g'oyasi ta'limoti paydo bo'ldi. U XX asrning ikkinchi yarmida keng rivoj topdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin bir qator g'arbiy yevropa mamlakatlarning konstitutsiyalarida ijtimoiy davlat formulasi o'z ifodasini topdi.[9]

Ijtimoiy davlat to'g'risidagi formulalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining birinchi moddasida ham mustahkamlab qo'yilib, bu davlatning ijtimoiy maqomini huquqiy jihatdan asoslaydi. Unga ko'ra "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat." [10] Ushbu maqolada tahlil qilinayotgan inklyuziv ta'lim masalasi ijtimoiy davlatning faqat bitta yo'nalishi bo'lib, jamiyatning eng muhim sohalaridan biri hisblanadi. Shu maqsadda o'z davlat siyosatini ijtimoiy davlat asosida amalga oshiruvchi har bir mamlakat eng avvalo ta'lim tizimidagi tengsizliklarni bartaraf qilishga qaratilgan inklyuziv ta'lim siyosatini izchil va barqaror amalga oshiradi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim muassasalari faoliyatida shuni ko'rish mumkinki, nogironlik belgilari og'ir bo'lmagan o'quvchilarni boshqa o'quvchilar bilan bir qatorda an'anaviy ta'lim standarti asosida bilim olayotganligi bu avvalo ularni ijtimoiylashishi va turli kamsitish kayfiyatini yo'qolishiga zamin yaratadi. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini yanada takominlashtirish va yangi sifat bosqichiga olib chiqish maqsadida quyidagilarni taklif qilamiz:

1. O'quv materiallarini brayl shakilda o'qiydigan va ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi talabalarning ta'lim muassasi kutubxonalaridan keng foydalanishi uchun zarur qulayliklarni yaratib berish maqsadida ta'lim muassasalarida kutubxonalarida Fransiya tajribasi asosida kitob sahifalarini skaner qilish orqali avtomatik ovoz eshittirish moslamalari va darsliklarini brayl shakilda chop etiladigan maxsus printerlar bilan jihozlash;
2. Inklyuziv ta'lim tizimida talabalar olayotgan nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan boyitish maqsadida inklyuziv ta'lim va inklyuziv mehnat uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan talabalarning tahsil olayotgan yo'nalishi va ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda mehnat muassasalarida amaliy dars soatlarini tashkil etish;
3. Inklyuziv ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishda rag'batlantirish va innovatsiyalarni keng tadbiiq qilishga qaratilgan start-up va innovatsion loyihalarni moliyallashtiriladigan davlat grantlarini ajiratis. Ilgari surilayotgan ushbu takliflar ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tivojlantirish, buning natijasida fuqarolarni eng muhim huquqi bo'lgan ta'lim olish huquqi amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim bu har bir insonning huquq va qobiliyatini hurmat qilishga qaratilgan va ularning iste'dodini ro'yobga chiqarish va qo'llab quvvatlaydigan standart hisoblanadi. Shu bois har bir mamalakat ijtimoiy davlat sifatida shakllanishi va inklyuziv jamiyatni barpo qilishida uning muhim fundamental asosi bo'lgan inklyuziv ta'limga yuksak e'tibor qaratadi.

### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. [https://www.google.com/url?sa=i&url=https%3A%2F%2forientalpublication.com%2Findex.php%2Fiscrc%2Farticle%2Fdownload%2F965%2F814&psig=AOvVaw3GbnqWT3dOFFivqYwhF5YJ&ust=1708679635219000&source=images&cd=vfe&opi=89978449&ved=0CAgQrpoMa hcKEwiw7pOqz76EAxUAAAAAHQAAAAAQBA](https://www.google.com/url?sa=i&url=https%3A%2F%2Forientalpublication.com%2Findex.php%2Fiscrc%2Farticle%2Fdownload%2F965%2F814&psig=AOvVaw3GbnqWT3dOFFivqYwhF5YJ&ust=1708679635219000&source=images&cd=vfe&opi=89978449&ved=0CAgQrpoMa hcKEwiw7pOqz76EAxUAAAAAHQAAAAAQBA)
2. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. "Adolat" milliy huququ axborot markazi. Toshkent-2023.- 24 b.(National Center of the Republic of Uzbekistan on Human Rights, Universal Declaration of Human Rights. "Adolat" National Law and Information Center. Tashkent-2023.- 24 p.)
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent-"O'zbekiston"-2023 (Constitution of the Republic of Uzbekistan, Tashkent-"Uzbekistan"-2023)
4. <https://lex.uz/docs/-5013007>
5. Panjizoda Hurriyatxon Ziyod Qizi Zoxiriy INKLYUZIV TA'LIMDA NOGIRON BOLLALARNI O'QITISH VA TARBIIYALASH MUAMMOLARI // ORIENSS. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-limda-nogiron-bollalarni-o-qitish-va-tarbiyalash-muammolari>
6. (Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002y. 20\23 bet.)
7. <https://kun.uz/uz/news/2023/05/30/shavkat-mirziyoyev-oz-saylovoldi-dasturida-5-ta-asosiy-yonalishga-etibor-qaratishini-malum-qildi#>
8. U.Bo'tayev, N.Latipova, A.Abdulxalilov, N.Saidova. Oliy o'quv yurtlarida "To'siqsiz muhitni" ta'minlash jarayonlarining metodik asoslari, Toshkent-2022. 21-22 b. (U. Butayev, N. Latipova, A. Abdulkhalilov, N. Saidova. Methodological foundations of the processes of providing a "barrier-free environment" in higher educational institutions, Tashkent-2022. 21-22 p.)
9. Odilqoriyev X. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.-T.:Adolat, 2022.- 468 b. (Odilkariyev H. Theory of State and Law. Textbook.-T.:Adolat, 2022.- 468 p.)
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent-"O'zbekiston"-2023 (Constitution of the Republic of Uzbekistan, Tashkent-"Uzbekistan"-2023)